

KASB TA'LIMI O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA KREATIVLIK KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH.

Turdimurodov Baxtiyor Qurbonovich

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali

“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi katta oqituvchisi.

email: baxtiyor.turdimurodov6668@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada kasb ta'limi o'qituvchilarining kreativlik ko'nikmasini shakllantirish va uning ish faoliyatidagi o'rni. Ta'lim jarayonida kreativ fikrlash, munozaralar o'tqizib dars samarasini oshirish uchun qilinadigan harakatlar to'g'risida yoritilgan.

Kalit so'zlar: kreativlik, kreativlikni rivojlantirish, kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi omillar, ijodiy salohiyat, o'qituvchining kreativ salohiyati.

ФОРМИРОВАНИЕ ТВОРЧЕСКИХ НАВЫКОВ В ПОДГОТОВКЕ ПЕДАГОГОВ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ.

Турдимуродов Бахтиёр Курбанович;

Термезский филиал Ташкентской медицинской академии

Старший преподаватель кафедры «Социально-гуманитарных наук».

email: baxtiyor.turdimurodov6668@gmail.com

Абстрактный. В данной статье формирование творческих способностей педагогов профессионального образования и их роль в работе. В ходе учебного процесса обсуждались творческое мышление, дискуссии, действия по повышению эффективности урока.

Ключевые слова: креативность, развитие креативности, факторы, препятствующие развитию креативности, творческий потенциал, творческий потенциал педагога.

FORMATION OF CREATIVITY SKILLS IN THE TRAINING OF VOCATIONAL EDUCATION TEACHERS.

Turdimurodov Bakhtiyor Kurbanovich;

Termiz Branch of Tashkent Medical Academy

Senior teacher of the "Social and Humanities" department.

email: baxtiyor.turdimurodov6668@gmail.com

Abstract. *In this article, the formation of creativity skills of vocational education teachers and its role in work. During the educational process, creative thinking, discussions, and actions to increase the effectiveness of the lesson were discussed.*

Key words: *creativity, creativity development, factors hindering creativity development, creative potential, teacher's creative potential.*

Kirish. Bugungi globallashuv kuchaygan davrda har qaysi jamiyat kreativ shaxslarga ehtiyoj sezadi. Bu tabiiy hol albatta. Chunki dunyoda har daqiqada sodir bo'layotgan o'zgarishlar shuni taqozo qilmoqda. Shu munosabat bilan turli soha olimlarining e'tibori pedagogik jarayon sharoitida o'qituvchi shaxsining kreativ salohiyatini ochish va rivojlantirish muammosiga qaratilgan. Demak, kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda kreativlik ko'nikmasini shakllantirishning yangi paradigmatic asoslarini ishlab chiqish zarurati tug'iladi.

Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirish va kreativlik qobiliyatlarini oshirishga alohida to'xtalgan. Kasb ta'limi o'qituvchilari o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllanadi.

Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda kreativ fikrlash ko'nikmasini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'рни beqiyosdir, ularning ijodiy kasbiy faoliyatida interfaol usullarning ahamiyati yoritilgan.

Doimiy o'zgarib turadigan tashqi va ichki dunyo, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va faoliyat mazmuniga mos keladigan kreativ shaxsning shakllanishi va rivojlanishi inson ontogenezing butun davri - tug'ilishdan to umrining oxirigacha davomiylik, uzluksizlik va qamrab olishni talab qiladi. Shaxsning kasbiy va ijodiy salohiyatini shakllantirish va rivojlantirish asosida uning kasbiy va ijodiy faoliyati tajribasini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar deyarli yo'q. An'anaviy professional tajriba bilim, ko'nikma va malakalarning birlashuvi sifatida aniqlanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.

Muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat

egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko'tarish maqsadida yurtimizda 2023-yilni O'zbekistonda "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim" yili deb nom berilishi bejis emas.

Shavkat Mirziyoyev ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'li ekanligini aytdi.

"Ushbu sohada boshlagan islohotlarimizni davom ettirishimiz, ta'lim dargohlariga borib, o'qituvchi va murabbiylar bilan ko'proq muloqot qilib, sifatni oshirish bo'yicha ular qo'ygan masalalarni birgalikda hal qilishimiz kerak. Biz kelgusi yil Davlat dasturiga xalqimiz ko'targan barcha masalalarni aniq yechimlari bilan kiritamiz. Ushbu jarayonlarda deputat va senatorlar, mahalla vakillari, ziyolilar, yoshlar, tadbirkorlar va keng jamoatchiligimizdan faol bo'lishlarini, yangi-yangi taklif va tashabbuslar bildirishlarini so'rayman", — dedi davlat rahbari[1].

Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o'tkirlikni tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Pedagog o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllanadi.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi, "talabalar e'tiborini ta'lim jarayoniga faol jalb etishni ta'minlaydi".

Kreativlik (ijodiylik) – qandaydir yangi, betakror narsa yarata olish layoqati, yangicha fikrlash, original g'oya va yechimga olib keluvchi aqliy jarayon. Tushunchaga berilgan ta'rifdan ko'rinib turibdiki, kreativlik ham xuddi tashabbuskorlik, ishga ijodiy yondashuv xislatlari singari albatta tug'ma, ilohiy tuhfa bo'lishi aslo shart emas. Modomiki, kreativlik – aqliy jarayon ekan, odam aqlini yuksaltirishning, rivojlantirishning, uning cheksiz imkoniyatlaridan foydalanishning bitmas-tuganmas yo'llari va usullari, albatta, topiladi.

Bu borada mutaffakir Abu Ali ibn Sino qarashlarida ham kretavlikni talqin etishimiz mumkin. Uning qarashlarida o'qituvchi o'z o'quvchilarning mayli, intilish, faolligi, qobliyatini, iste'dodi va layoqatini aniqlamasdan turib, uni ijodiy fikrlashga yo'naltira olmaydi degan.

Ta'limda ko'rsatmalilik tamoyili o'qitish jarayonini sifatini oshiradi, o'quvchilarning bilim olishlarini osonlashtiradi. Ya.A.Komenskiy uni didaktikaning "oltin qoidasi" deb atagan. Unga binoan ta'limda inson sezgi organlaridan foydalanish kerak. «Agarda biz o'quvchilarda haqiqiy va aniq bilimlar paydo qilishni istasak, unda biz umuman hamma narsaga shaxsiy kuzatish va sezib ko'rish bilan ta'limga intilishimiz kerak - deb ta'kidlaydi u - agarda qandaydir predmetni baravariga bir necha sezgi organlari bilan qabul qilish mumkin bo'lsa, mayli ular baravariga bir necha sezgilari bilan o'rganilsin».

Tajribalar asosida o'rganilayotgan narsani namoyish etish va jarayon mohiyatini hikoya qilib berish o'zlashtirish darajasini birmuncha oshiradi. Xususan, axborotlarni eshitib qabul qilish samarasi 15%, ko'rib qabul qilish esa - 25%ni tashkil etadi. Ta'lim jarayonida, ularni bir vaqtda ishtirok etishi natijasida ma'lumotlarni qabul qilish samaradorligi 60 % gacha ortadi.

Kreativlik shaxs ijodkorligining muhim tarkibiy qismidir. U shaxsning kognitiv maqsadga erishish, boshlangan ijodiy ishni davom ettirish, bilish faoliyatidagi qiyinchiliklarni bartaraf etish, aqliy harakatlarni rejalashtirish va ketma-ketlashtirish, maqsadga erishish variantlari va usullarini izlash istagida ifodalanadi; Shuningdek shaxsda stenik tuyg'ular (kognitiv va ijodiy faoliyatdan quvonch hissi, ixtirolar jarayonida qiyinchiliklarni engishga tayyorlik, kognitiv yoki ijodiy maqsadga erishishdan g'ururlanish, biror narsa o'ylab topish imkoniyatidan zavqlanish, ijodiy ish boshlanishidagi optimistik faollik, uning ijobiy natijasini kutish, muvaffaqiyasizliklar holatida xotirjamlik va boshqalar) ham hosil bo'ladi[2].

Tahlil va natijalar.

Kreativlik nima? Amerikalik psixolog Avraam Maslouning fikricha, bu har bir kishiga xos bo'lgan, lekin mavjud tarbiya, ta'lim va ijtimoiy amaliyot tizimi ta'sirida ko'pchilik tomonidan yo'qolgan ijodiy yo'nalishdir.

Kreativlik qobiliyati "Xudoning in'omi" va shuning uchun kreativlikni o'rgatish mumkin emas degan ancha keng tarqalgan fikrdan farqli o'laroq, M.M. Zinovkina boshqacha yondasuvga ishora qiladi. Texnologiya va ixtirolar tarixini o'rganish, atoqli olim va ixtirochilarning ijodiy hayoti tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning barchasi yuqori (o'z davri uchun) fundamental bilimlar bilan bir qatorda maxsus bilimlar ombori yoki algoritmik fikrlash, shuningdek, ma'lum bilimlar, shu jumladan evristik usullar va texnikalarga ega bo'lishgan.

Ingliz psixologi E.P.Torrens kreativliknig quyidagi jihatlarini ilgari surgan:

muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish;

taxminlarni tekshirish va o'zgartirish;

qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash;

-muammoni hal qilishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan sezgirlikni ifodalash[3].

Lotinchada "**kreativlik**" tushunchasi quyidagicha. "**Creatio**" – "yaratish", "ijodkor" – "yaratuvchi", degan ma'nolarni anlatadi, lekin mohiyatan bu tushuncha insonning ijodiy qobiliyatining namoyon bo'lishidir.

Ijodkor shaxslar - bu rassomlar, haykaltaroshlar, yozuvchilar, shoirlar, fotosuratchilar - turli xil ijod turlarida o'z qobiliyatlarini amalga oshiradigan odamlar. Ijodkorlik, qoida tariqasida, ishbilarmonlarga xos xususiyatdir: dizaynerlar, reklama beruvchilar, marketologlar, brend-menejerlar va boshqalar.

Kasbiy va ijodiy faoliyatni faol o'zlashtirish, uni samarali amalga oshirish nafaqat ko'nikma va ko'nikmalarni rivojlantirish va integratsiyalashuvini, kasbiy ishni bajarishning individual uslublari va usullarini ishlab chiqishni, balki kasbiy ijod metodologiyasini o'zlashtirishni, ijodiy fikrlashni rivojlantirishni va o'z ichiga oladi. Ijodiy shaxsning shakllanishini amalga oshirilgan ijodiy faoliyatga va olingan ijodiy natijalarga mos keladigan shaxsning shakllanishi va rivojlanishi deb ta'riflash mumkin. Bu jarayonning sur'ati va traektoriyasi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning o'z

faoliyati va ijodiy fazilatlari, shuningdek, sharoitlar, hayotiy voqealar va kasbiy jihatdan aniqlangan omillar bilan belgilanadi. Ijodkor shaxsni shakllantirish va ijodiy ta'lim o'rtasida yaqin bog'liqlik mavjuddir.

Inson aql-zakovati sohasidagi mutaxassislar ijodiy jarayonni ta'minlash uchun konvergent (mantiqiy, ketma-ket, chiziqli) va divergent (yaxlit, intuitiv, aloqador) tafakkurning kombinasiyasi zarur deb hisoblaydilar. Tafakkur xususiyatlarining bunday kombinasiyasi natijasi ongning ravonligi va moslashuvchanligi, shuningdek, o'ziga xoslik, hukmning aniqligi bilan uyg'unlikda namoyon bo'ladi[4].

Pedagogik jarayonda ijodkorlikni rivojlantirish uchun shaxs salohiyatini oshirishga, ijodiy faolligini oshirishga yordam beradigan o'qitish metodlari va texnologiyalaridan foydalanish zarur. Ushbu texnologiyalar shaxsning o'zini o'zi qadrlashni shakllantirishga, o'z imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni oshirishga va voqelik bilan adekvat aloqada bo'lishga to'sqinlik qiladigan psixologik qiyinchiliklarni rivojlanishiga yordam beradi.

Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchi faoliyatining ustuvor yo'nalishi. muloqotning dialogik usullariga, yechimni birgalikda izlashga va turli ijodiy faoliyatga beriladi. Bularning barchasi o'qitishning interfaol usullarini qo'llash orqali amalga oshiriladi. Interfaol ta'lim jarayonida o'quvchilar tanqidiy fikrlashni, vaziyat va tegishli ma'lumotlarni tahlil qilish asosida murakkab masalalarni yechishni, muqobil fikrlarni topishni, puxta o'ylangan qarorlar qabul qilishni, muhokamalarda qatnashishni o'rganadilar. Buning uchun darslar juftlik va guruh usullari asosida tashkil etiladi, ilmiy-tadqiqot loyihalari, rolli o'yinlar qo'llaniladi[5].

Kreativlikni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini tahlil qilish natijalari bo'lajak o'qituvchining pedagogik amaliyot davridagi kreativligini rivojlantirishning tarkibiy-funksional modeli tamoyillarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi. Bu tamoyillar quyidagilardan iborat.

1.Muammoli tamoyili.

Muammoli tamoyilidan foydalanish pedagogik faoliyat uchun yangilik emas. Kreativlikning mohiyati muammoli xarakterga ega bo'lib, u muammoning nostandart yechimini topishdan iborat. Pedagogik amaliyotda bo'lajak kasb ta'limi

o'qituvchilarining kreativligini muammolilik tamoyiliga muvofiq rivojlantirish ijodiy muammoli vazifalarda namoyon bo'ladi, masalan, "Gipotezani ilgari suring va uni sinab ko'rish rejasini tuzing ...", "Dastlabki natijani baholash ...", "O'quv materialini boshqacha taqdim eting ..." va hokazo.

2.Ijodiy yo'nalish tamoyili.

Bu tamoyil nafaqat reproduktiv, balki ijodiy faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi. Kreativlikni rivojlantirish faqat maqsadli xarakterga ega bo'lmasligi kerak, ya'ni erishilayotgan natija amaliyot so'ngida natijaga erishish degan fikrdan yiroq bo'lishi lozim. Chunki bu holat mashg'ulot sifatiga, diagnostika natijalariga, umuman, barcha tajriba-sinov ishlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Agar kreativlikning rivojlanishi bosqichli xususiyatga ega bo'lib, har bir vazifa yoki faoliyat turi sinovning keyingi bosqichi sifatida qaralmasdan, balki o'z - o'zini sinab ko'rish, o'zini o'zi anglash va qiziqarli faoliyat uchun imkoniyat sifatida yo'naltirilgan bo'lsa, u holda bajarilayotgan ish yuqori sifatli va o'rganilayotgan konsepsiya ko'rsatkichlari o'sish darajasida bo'ladi.

3.Butunlilik va izchillik tamoyili.

Bu tamoyil ijodkorlikni rivojlantirish dasturi tuzilmasi yaxlitlilik, izchillik, to'liqlilikni talab qiladi. Faqat shu holatda qo'yilgan maqsadga erishish uchun vosita va usullarni tanlashning maqsadga muvofiqligi haqida gapirish mumkin. Kreativlikni bo'lajak o'qituvchining yaxlit qiyofasiga hamroh bo'ladigan sifatlar tizimining tarkibiy qismi sifatida qarash lozim.

4.Individuallashtirish tamoyili.

Ushbu tamoyilning asosiy jihati har bir talabaning individual tarbiyaviy ish uslubini, uning shaxsiy rivojlanishining o'ziga xos trayektoriyasini va ruhiy jarayonlarning ishlash xususiyatlarini hisobga olishdan iborat. Shunda dasturning har shakllanish darajasiga mos keladigan ijodiy yutug'i bo'ladi.

Kreativlikning rivojlantirishning bosh maqsadi bu o'quvchilarning aqliy faoliyati va mantiqiy fikrlashini rivojlantirishdan iborat. Buning uchun biz talaba erishgan rivojlanish darajasiga emas, balki bir oz oldinroq qadam tashlab, uning fikrlash

qobiliyatidan biroz yuqoriroq bo'lgan talablarni qo'yishimiz kerak. Shuningdek kreativlikni rivojlantirish quyidagi vazifalarni hal qilishga ham yordam beradi:

Talabalarni turli yo'nalishlarda fikrlashga o'rgatish;

Nostandart vaziyatlarda muammoning yechimlarini topishni o'rgatish;

Aqliy faoliyatning o'ziga xosligini rivojlantirish.

Talabalarni mavjud muammoli vaziyatni turli tomonlardan tahlil qilishga o'rgatish;

Tez o'zgaruvchan dunyoda yanada samarali hayot va moslashish uchun zarur bo'lgan fikrlash xususiyatlarini rivojlantirish.

Shu bilan birgalikda pedagogik kreativlikni rivojlantirish sharti o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda insonparvarlik psixologiya tamoyillarini amalga oshirishdir. Ushbu tamoyillar quyidagilarni nazarda tutadi:

Har bir talabaning g'oyasini yuqori baholash, bu barcha g'oyalar va javoblarni ijobiy mustahkamlash, xatodan tanish narsaga yangicha qarash imkoniyati sifatida foydalanishni nazarda tutadi.

O'zaro ishonch, psixologik xavfsizlik muhitini yaratish.

Tanlash va qaror qabul qilishda mustaqillikni ta'minlash.

Kreativ salohiyatga ega o'qituvchi quyidagi sifatlarga ega bo'ladi:

Kreativ fikrlashi kengayadi ;

Tadqiqot ko'nikmalarini yaxshi egallaydi;

Pedagogika yoki maxsus fan yutuqlaridan hamda ilg'or tajribalardan foydalanish imkoniyatlarini mustaqil tahlil qiladi;

Professor-o'qituvchilar tomonidan olib borilayotgan ijodiy loyihalar va ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda faol ishtirok etadi.

Kreativ fikrlaydigan o'qituvchiga qo'yiladigan zamonaviy talablar shundan iboratki, u axborotchi emas, balki o'quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda muvofiqlashtiruvchi (koordinator), boshqaruvchi (menejer), muloqot tashkilotchisi, maslahatchisi bo'lishi kerak. O'qituvchi bilimlarni o'zlashtirishning eng samarali usullarini izlashni qo'llab-quvvatlaydi va boshqaradi, qiziqarli kashfiyotlarni

rag'batlantiradi, muvaffaqiyasiz urinishlarni tahlil qiladi, o'quvchilarni mag'lubiyat va g'alabalarni amalga oshirishga undaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Demak, kreativlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari sinfda maqsadli ravishda yaratilgan ijodiy tarbiyaviy muhitga bog'liq bo'lishi mumkin; kasb ta'limi o'qituvchisining ijodiy xulq-atvori namunasining mavjudligi va talabalarning ijodiy qobiliyatlarini ifodalovchi sifatida o'qituvchining shaxsiyati; talabalar va o'qituvchilarning birgalikda yaratilishi; ijodiy faoliyatdagi sub'ektiv o'rni; ijodiy muhitni saqlash va muvaffaqiyat holatlarini yaratish. Kasb ta'limi o'qituvchisi ijodining eng samarali rivojlanishi ijodiy ta'limning uzluksiz tizimi sharoitida maqsadli, har tomonlama pedagogik ta'sir ko'rsatish orqali ta'minlanadi. Shuningdek nostandrt fikrlovchi, qiyin vaziyatlarda xotirjam, muammoning yechimini topishda bir tomonlama emas, turli tomonlama yondashadigan salohiyatli mutaxassislarni yetishtirishdan iborat.

O'qituvchining faqatgina zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalarni, innovatsion pedagogik texnologiyalarni emas balki, darslarni kreativlik, kreativ qobiliyatlilik ruhida tashkil etish, yangicha kreativ g'oyalarni ta'lim jarayonida qo'llashi zarur.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kreativ qobiliyatlarini takomillashishiga qaratilgan innovatsion pedagogik jarayonlar, ko'zlangan pedagogik maqsadlarga erishish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

[1].O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis palatalariga yo'llayotgan murojaatnomasi Toshkent, 20 dekabr 2022 yil.

[2].Turdimurodov B. et al. TIBBIYOTDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARI: ALOQA TARIXI, AHAMIYATI VA ISTIQBOLLARI //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2023. – T. 2. – №. 7. – C. 140-146.

[3].Turdimurodov B. BO‘LAJAK KASB TA’LIMI O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASH JARAYONIDA KREATIV FIKRLASH KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI. TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYA.

Ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal. ISSN 2181-8274.2023.2-son. 237-241-betlar.

[4].Kurbanovich T. B., Ulaboyevich K. S. Effective use of digital technologies in the medical education system //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 3. – C. 473-477.

[5].Turdimurodov B. et al. TIBBIYOTDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR //Евразийский журнал медицинских и естественных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 219-222.

[6].Zinovkina M. M. NFTM-TRIZ: Creative education of the XXI century (Theory and practice): Monograph. M., 2007.

[7].Barnokhon R., Bakhtiyor P. The formation of creative thinking in teaching physics //International Engineering Journal For Research & Development. - 2020. - T. 5. - №. ICIPPS. - C. 5-5.

[8].<http://www.uza.uz>